

OLMOSH SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Isaqova Gulzoda Anvarjon qizi

NamDU Boshlang‘ich talimda
ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish
metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, tilshunoslikning morfologiya bo‘limining olmosh so‘z turkumi mavzusini o‘rgatishda interfaol metod turlarining ahamiyatlari ko‘rsatilgan. Ko‘rsatilgan pedagogik asoslarning qo‘llanilish sababi, maqsadi va afzallikkari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, olmosh so‘z turkumi, “Beshinchi(oltinchi, yettinchi,...) ortiqcha” metodi, “BBB” metodi.

ABSTRACT

In this article, the importance of interactive methods in teaching the subject of pronouns in the morphology department of linguistics is shown. The reason, purpose and advantages of using the indicated pedagogical principles are analyzed.

Keywords: morphology, pronoun group, “Fifth (sixth, seventh,...) plus” method, “BBB” method.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показано значение интерактивных методов в преподавании предмета местоимения на морфологическом факультете языкоznания. Анализируются причина, цель и преимущества использования указанных педагогических принципов.

Ключевые слова: морфология, группа местоимений, метод “Пятый (шестой, седьмой,...) плюс”, метод “BBB”.

Til ta’limining asosiy talablariga ko‘ra o‘quvchi mavzu bo‘yicha belgilangan bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarishda mustaqil ijodiy fikrlashi, kuzatishi, umumiylikni topishi, farqlarni aniqlashi, qiyoslashi, tasniflashi, xulosa chiqarishi, aloqadorlikni ochishi, amaliyotda qo‘llay olishi kerak. O‘quvchilarda mustaqil ishslash va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bunda

o‘quvchilarning barchasi dars jarayoniga jalb etiladi, o‘qituvchi ularning topshiriqni bajarish jarayonidagi ishtirokiga ko‘ra mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlab oladi. Ana shunday interfaol metodlardan biri “**Beshinchi(oltinchi, yettinchi,...) ortiqcha**”, “**BBB**” metodlaridir.

Quyida olmosh so‘z turkumini o‘zlashtirishda interfaol metodlardan foydalanamiz.

Olmosh, avvalo, bu so‘zning etimologiyasiga e’tiborimizni qaratsak, olmosh-biror so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘z turkumidir. Bu so‘z asli “qo‘lga ol”, “o‘ziniki qil” - ma’nolarini anglatuvchi al - fe’lining “takror” ma’nosini anglatuvchi - ma qo‘shimchasi qo‘shilgan alma - shaklidan -sh harakat nomi qo‘shimchasi bilan hosil qilingan, keyinchalik esa harakat nomi shaklidagi fe’l otga ko‘chgan. O‘zbek tilida a unlilari a: unlilariga almashgan. Ya’ni, (al- + ma = alma -) + sh = almash > almash shakliga kelgan.¹

Olmosh so‘z turkumi boshqa so‘z turkumlari ot, sifat, son, ravish so‘z turkumlari o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z turkumidir. Olmoshlarning asosiy vazifasi va qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanishi matnda oydinlashadi. Olmoshlarning ma’nosini noaniq va umumiyl bo‘ladi. Ma’no va grammatick xususiyatlarga ko‘ra, olmosh umumlashgan predmet (olmosh - ot: men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima), umumlashgan belgi (olmosh - sifat: bu, shu, o‘sha, qaysi, allaqanday, hech qanday), umumlashgan miqdor (olmosh - son: qancha, necha, shuncha, o‘shancha) bildiruvchi olmoshlarga bo‘linadi. Olmoshlar noaniqligi, so‘z yasalishining yo‘qligi bilan boshqa so‘z turkumlaridan farqlanadi. Olmoshlar ma’no va grammatick xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Kishilik olmoshlari - men, sen, u, biz, ular bo‘lib, shaxslar o‘rnida ishlataladi;
2. O‘zlik olmoshi - o‘z so‘zidan iborat bo‘lib, predmet ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab ko‘rsatadi;
3. Ko‘rsatish olmoshi - bu, shu, o‘sha, u, ana, mana kabi so‘zlar predmet va uning belgilarini ko‘rsatadi;
4. So‘roq olmoshlari - kim?, nima?, qancha?, qanday? kabi so‘zlar predmet, belgi va miqdor haqida so‘roqni bildiradi;
5. Belgilash - Jamlash olmoshi - hamma, bari, ba’zan, har nima, har qanday kabi so‘zlar predmet va uning belgisini umumlashtirib, jamlab ko‘rsatadi;
6. Bo‘lishsizlik olmoshi - hech kim, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi kabi so‘zlar inkor ma’nosini bildiradi;

¹ Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.:Фан, 2010. 26-б.

7. Guman olmoshi - allakim, allanima, nimadir, kimir, birov kabi so‘zlar predmet va uning belgisini , miqdorini taxminlab, chandalab ko‘rsatadi;

Olmoshlar - zamonaviy til bilan aytganda, “ichi bo‘sh” so‘zlar hisoblanadi. Ushbu ichi bo‘sh so‘zlar vazifasi hozirda ham qadimda ham bir xil bo‘lgan. Ya’ni, boshqa so‘z turkumlariga ishora qilish, o‘rnida qo‘llanish xususiyatiga ega. Olmosh shunday murakkabki, u butun boshli matn o‘rnida ham keladi. Bilamizki, bunday xususiyat boshqa so‘z turkumlarida mavjud emas. Uni qadimgi va hozirgi holatini qiyoslab o‘rganish olmoshning yangidan -yangi xususiyalarini ochib beradi.

Shu jihat bilan olmoshning o‘zbek tilidagi o‘rni beqiyosdir.

“Beshinchi(oltinchi, yettinchi,...) ortiqcha” metodi o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiradi:

- 1) o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;
- 2) hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta(beshta, oltita,...) va taalluqli bo‘limgan bitta tushunchaning o‘rin olishishiga erishish;
- 3) o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘limgan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- 4) o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardantizimdan saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tish, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslash talab qilinadi


“Beshinchi(oltinchi, yettinchi,...) ortiqcha” metodida olmosh so‘z turkumini o‘rganish

olmosh so‘z turkumi ma’no jihatdan 7ta guruhga bo‘linadi;
olmosh so‘z turkumi tuzulishiga ko‘ra : sodda,qo‘shma, juft, takroriy turlari bor;
har qaysi olmoshning belgilash turiga mansub;
guman olmoshlari yasalish xususiyatiga ega emas;
o‘zlik olmoshiga so‘z yasovchi qo‘sishchalar qo‘sish orqali yangi so‘z yasash mumkin.

boshqa so‘z turkumlaridan olmosh so‘z turkumini hosil qilinadi.¹

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini ko‘rsata va asoslay olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy g‘oyalarni o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

“**BBB**” metodini ham olmosh so‘z turkumini o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar guruh yoki jamoada ishslashlari mumkin. Guruhda ishslashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.



O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Olmosh so‘z turkumi mustaqil so‘z turkumlari sirasiga kiradi; Olmosh so‘z turkumi ma’no jihatdan 7ta turga bo‘linadi	Olmoshlarning yasalishi; Olmosh so‘z turkumining sintaktik vazifalari	O‘zicha ravishi o‘zlik olmoshidan hosil bo‘lgan; Olmoshlar tuzulishiga ko‘ra 4guruhsiga bo‘linadi

¹ Usmonboyeva M, Aripova Sh, Mo’manova D Taa’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish—T.:Фан, 2019. 46-b.

Dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan bajargan ishlari yig‘ib olinadi. Bu usul yordamida o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarni balki o‘zining darsini qay darajada yoritib bergenligini ham baholashi mumkin.

Umuman olganda, interfaol metodlar ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish va abituriyentlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirishda kata amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ҳожиев А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.:Фан, 2010. 26-б.
- 2.Usmonboyeva M,Aripova Sh, Mo‘minova D Taa’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish–Т.:Фан, 2019. 46-b.
3. Усмон О, Авизов Б.Ўзбек тили грамматикаси. И.т Морфология.–Т.: Фан,1975. 11-б.
4. Турсунов У,Мухторов Ж, Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, I қисм, Педагогика институтларининг филология факултети талabalari учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. 159-б.
5. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари талabalari учун ўқув кўлланма. –Т.:Илм, 2004. . 68-б.